



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

KREATIV DARSLARNI MODELLASHTIRISHGA TAYYORLASHDA INDIVIDUAL TA'LIMNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Abdikerimova Madina Miyat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

abdikerimovamadina@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik paradigmada ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda ularning mustaqil fikrlash faoliyatini shakllantirish darajasi bilan belgilanadi. Bu ta'lim bosqichlarini tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish asosida amalga oshirilishi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'z: Kreativ, dars, modellashtirish, pedagog, individual, mustaqil, paradigma, ijodiy, qarashlar, milliy, psixologik, ta'lim.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ИНДИВИДУАЛИЗИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ПОДГОТОВКЕ К МОДЕЛИРОВАНИЮ ТВОРЧЕСКИХ УРОКОВ

Аннотация: В данной статье утверждается, что эффективность образовательного процесса в современной педагогической парадигме во многом определяется уровнем развития творческого мышления учащихся и формированием их самостоятельной мыслительной деятельности. Утверждается, что это осуществляется на основе определения приоритетных направлений систематической реформы этапов обучения, поднимая процесс подготовки высококвалифицированных кадров с самостоятельным мышлением на качественно новый уровень.

Ключевые слова: Творческий, урок, моделирование, учитель, индивидуальный, самостоятельный, парадигма, творческий, взгляды, национальный, психологический, образование.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL POTENTIAL OF INDIVIDUALIZED LEARNING IN PREPARING FOR THE MODELING OF CREATIVE LESSONS

Abstract: This article states that the effectiveness of the educational process in the modern pedagogical paradigm is largely determined by the level of development of students' creative thinking and the formation of their independent thinking activity. It is said that this is carried out on the basis of determining the priority areas of systematic reform of educational stages, raising the process of training highly qualified personnel with independent thinking to a qualitatively new level.

Keywords: Creative, lesson, modeling, teacher, individual, independent, paradigm, creative, views, national, psychological, education.

KIRISH

Mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida mazkur ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovasion infratuzilmasini shakllantirish masalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida sportni qadriyat sifatida rivojlantirish, talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini ommalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish .dolzarb masallardan hisoblanadi. Respublika rahbarining «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak» nomli Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida "ta'lim va ilm-fan davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish ta'limning yangi zamonaviy usullarini tanqidiy tahlil qilib berilgan edi. Bu belgilangan vazifalar kelajak avlodni tarbiyalashda ularning jismoniy faolligini ta'minlash asosida kognitiv –ijodiy faoliyatini ta'minlashni muhim ilmiy pedagogik muammo sifatida o'rganish zaruratini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kreativlik fenomeni ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, amerikalik psixolog J. Guilford kreativlikni inson tafakkurining muqobil g'oyalarni yaratish, fikrlash moslashuvchanligi hamda originalligi bilan tavsiflanadigan qobiliyatlar majmui sifatida izohlaydi . E. Torrance esa kreativlikni muammoni sezish, gipoteza ilgari surish, ularni tekshirish hamda yangi g'oyalarni ishlab chiqish jarayoni sifatida talqin qiladi .

H. Gardner o'zining ko'p intellekt nazariyasida kreativlikni shaxsning individual qobiliyatlari, motivatsiyasi hamda ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadigan murakkab psixologik jarayon sifatida baholaydi.

Ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri kreativ darslarni tashkil etish hisoblanadi. Kreativ dars o'quvchilarning o'zlashtirishini faollashtirish, ularni mustaqil izlanishga undash hamda muammoli vaziyatlar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan pedagogik tizim sifatida tavsiflanadi. Bunday darslar o'quvchilarning analitik fikrlashini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish hamda o'quv jarayoniga faol jalb etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. I.Ya. Lerner ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishning muhim didaktik sharti ekanligini ta'kidlaydi [.]

Individual ta'lim sharoitida tashkil etilgan pedagogik tayyorgarlik jarayoni bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish, ularning pedagogik loyihalash kompetensiyasini shakllantirish hamda innovasion faoliyatga tayyorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Adabiyotlarda bu borada «pedagogik faoliyatda innovasion yondashuv hamda kreativ fikrlashni rivojlantirish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil ekanligi» [..] ta'kidlanadi. Kreativlikning psixologik va pyedagogik talqini tahlil qilinib, uning mazmuni inson tafakkurining ijodiy yo'nalganligi hamda yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat xususiyatlari bilan izohlanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda kreativlikning nazariy asoslari asosan divergent tafakkur nazariyasi bilan bog'liq holda yoritiladi. Jumladan, amerikalik psixolog J.Guilford kreativlikni inson tafakkurining muqobil g'oyalarni yaratish, muammoli vaziyatlarga bir nechta yechimlar taklif qilish hamda fikrlash moslashuvchanligi bilan tavsiflanadigan xususiyati sifatida talqin etadi. Uning fikricha, kreativ tafakkur originallik, fikrlash tezkorligi hamda moslashuvchanlik kabi muhim komponentlar orqali namoyon bo'ladi. Muallifning fikrini tasdiqlab, talabaning ijodkorligi ta'lim va pedagogik faoliyatda

muammoni prognozlash, gipoteza ilgari surish, yangi yechimlarni sinab ko'rish hamda ularni takomillashtirish jarayoni sifatida baholanishini ta'kidlash mumkin.

Ma'lumki, kreativ fikrlash insonning muammoli vaziyatlarga bir nechta yechimlar taklif qila olishi va fikrlash jarayonida erkin fikrlashning moslashuvchanligi va originalligi bilan tavsiflanuvchi intellektual qobiliyatlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy manbalar tahlilidan kelib chiqib, kreativlik shaxsning faqat yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyatini emas, balki muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qilish va ularga nostandart yechim topish imkoniyatini ham ifodalaydi. Bizningcha, ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish talabalarning mustaqil fikrlashini kuchaytirish, ularning innovasion faoliyatga tayyorligini shakllantirish, ta'lim jarayonida muammoli o'qitish, izlanishga asoslangan topshiriqlar va ijodiy faoliyatni tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, bugungi zamon talablari asosida fan o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi, kreativ faoliyatini, ilmiy salohiyatlarini oshirishni nazarda tutadi. Mazkur masala boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishga bo'lgan ilmiy faoliyati, muhim fazilatlari, o'qituvchining yuqori ijodiy salohiyat yetuk kasb egasi bo'lishi [...], kreativlik intellektual faoliyat natijasi sifatida amaliyotda qo'llanishi mumkin bo'lgan g'oyalarni ishlab chiqish bilan bog'liqligi hamda zamonaviy ta'limda bilimlarning amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish kabi yechimlarni talab qiladi.

"Kreativlik" – tom ma'noda – yangi narsa yaratishdir. Shu ma'noda bu so'zni barcha jarayonlarga nisbatan qo'llash mumkin. Har bir pedagogning kreativ-ijodiy faoliyati bu – yuksak fikrlash, badiiy va amaliy faoliyat sohalari, ilmiy, metodik, tashkiliy,

ma'naviy sohalar: she'riy, musiqiy, tasviriy san'at, adabiy, va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Psixologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik faqat intellektual jarayon bilan cheklanmay, balki shaxsning emosional, motivasion hamda ijtimoiy xususiyatlari bilan ham chambarchas bog'liq. H.Gardnerning ko'p intellekt nazariyasiga ko'ra, har bir shaxs o'ziga xos kognitiv rivojlanish profili bilan tavsiflanadi va kreativlik aynan ushbu individual imkoniyatlarning o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanadi. Mazkur yondashuv pedagogik jarayonda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning muhimligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, darsni modellashtirish o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Bizningcha, kreativ darslarni modellashtirish o'quv jarayonini innovasion asosda tashkil etish, talabalarning bilish faolligini oshirish va ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

O'zbek pedagog olimlari tomonidan ham pedagogik kreativlik masalasi keng o'rganilgan. Xususan, N.A.Muslimov pedagogik kreativlikni o'qituvchining innovasion faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini ifodalovchi muhim kasbiy sifat sifatida talqin qiladi. B.X. Xodjayev esa, ta'lim texnologiyalarini loyihalash jarayonida o'qituvchining ijodiy yondashuvi pedagogik tizim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvlar pedagogik kreativlikning nafaqat shaxsiy sifat, balki kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi tizimli omil ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik kreativlikning shakllanishi va rivojlanishi bevosita o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik jarayoni bilan bog'liq. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida kreativlikni rivojlantirish pedagogik faoliyatning innovasion xarakterini ta'minlash, ta'lim jarayonini modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirish hamda o'quvchilarning bilish faolligini oshirish imkonini beradi. Natijada pedagogik kreativlik bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ darslarni modellashtirishga tayyorlashning muhim nazariy asoslaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Kreativ darslar strukturasi an'anaviy dars tuzilmasidan farqli ravishda moslashuvchan va dinamik xarakterga ega bo'lib, unda o'quv jarayonining barcha komponentlari o'zaro integratsiyalashgan holda namoyon bo'ladi. Mazkur holat kreativ darslarni ilmiy asosda modellashtirish hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ushbu jarayonga tayyorlash zaruratini belgilaydi. Bu esa zamonaviy pedagogik ta'lim tizimida kreativ yondashuvni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Pedagogik modellashtirish jarayonida ta'lim mazmuni va metodlarini samarali tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarning individual xususiyatlari, bilish imkoniyatlari hamda jismoniy xolatini hisobga olish zarurati individual ta'lim yondashuvini qo'llashni taqozo etadi. Olimlar talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda jismoniy madaniyat muhim pedagogik shartlardan biri ekanligini, jismoniy mashg'ulotlar talabalarda faollik, mustaqil fikrlash va yangicha g'oyalar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirishi [...], inson jismoniy va intellektual faoliyatga chuqur kirishganida unda ijodiy g'oyalar paydo bo'lishi [...], ta'lim oluvchilarning jismoniy mashqlari va ularning konvergent va divergent fikrlash jarayonlariga ta'sir qilishi [...] xamda jismoniy mashg'ulotlar insonning faol fikrlashini, tashabbuskorligini va ijodiy faolligini shakllantirishga yordam berishi [...]eksperimental holatlarda aniqlangan. Shu asosda ta'lim oluvchilarning jismoniy faolligi ularning ijodiy tafakkurining shakllanishida muxim omillardan xisoblanadi.

Bu esa pedagogik jarayonda differensial yondashuv hamda individual ta'lim strategiyalaridan foydalanish zarurligini ko'rsatadi [...]. Mazkur yondashuv o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda ularning kreativ faoliyatini faollashtirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Shuningdek, kreativ tafakkur rivojida muhim o'rin tutuvchi ichki motivatsiyaning kuchayishiga olib kelishi [...], duch keladigan qiyinchiliklarini muvaffaqiyatli uddalashiga asos bo'lishi [...], mustaqil qarorlar qabul qilish hamda o'z fikrlarini asoslab himoya qilish imkoniyatini yaratishi [...], shaxsning ichki imkoniyatlarini namoyon

qilishi [...], yangilik yaratishga yo'naltirilganligini ta'minlaydi [...], refleksiv faoliyat rivojlanadi [...] hamda xatolarini aniqlash hamda yangi strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga [...] ega bo'ladilar.

XULOSA

Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishda faol harakat muhitining ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash muhim xisoblanadi. Kreativ darslarni modellashtirish jarayoni pedagogik loyihalash faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, u individual ta'lim sharoitida ushbu bosqichlarning har birida talabalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda tashkil etilishi, bu esa modellashtirish ko'nikmalarining samarali shakllanishi, jarayondagi muhim didaktik sharoitlarni yaratishi muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishi, talabalarning mustaqil pedagogik faoliyatini rivojlantirishi turli adabiyotlarda ilmiy asoslangan. Sababi, talabalarda amaliy harakat va refleksiv tajribaga motivatsiyani barqarorlashtirish ta'lim sub'yektlarining kreativ faoliyati bilan bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni// **www.lex.uz**
2. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B.104.
- 3.Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. New York: McGraw-Hill, 1967. – 538 p
4. Torrance E.P. Creativity in the Classroom. Washington: National Education Association, 1977. – 256 p
- 5.Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books, 1983. – 440 p.
- 6.Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. Москва: Педагогика, 1981. – 186
7. Н.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Тошкент: 2015. – 120 б.
- 8.Ходжаев Б.Х. Интерфаол таълим технологиялари ва стратегиялари. Тошкент: 2015. – 79
- 9.Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Инновацион таълим технологиялари. Тошкент, 2015. – 208 б

10. Деси Э., Райан Р. Внутренняя мотивация и самоопределение в человеческом поведении. Нью-Йорк: Пленум Пресс, 1985. – 371 с
11. Кларк К., Петерсон П. Процессы обучения и преподавания. Москва: Педагогика, 1986. – 320